

ERKIN VOHIDOV LIRIKASIDA TALMEH SAN'ATINING O'RNI

Hosiljonova E'zoza No'monjon qizi,*O'zbekiston Milliy universiteti 1-kurs magistranti**E-mail: ehosiljonova@gmail.com***Ilmiy rahbar: M. Asadov,***O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktor o'rinbosari, f.f.d., professor***DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18666503>**

Annotatsiya. Mazkur maqolada atoqli shoir Erkin Vohidov ijodida badiiy san'atlardan biri bo'lgan talmeh san'atining o'rni va ahamiyati tahlil etiladi. Tadqiqot jarayonida talmeh san'atining nazariy ta'riflari mumtoz poetik manbalar asosida yoritilib, uning she'riy matndagi estetik va ma'naviy vazifalari ochib beriladi. Erkin Vohidovning "Samar bo'lg'ay", "O'zbekim", "Debocha" kabi lirik asarlari hamda talmeh san'atining badiiy imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada talmeh san'ati shoir ijodida tarixiy xotira, adabiy vorislik va milliy o'zlikni ifodalovchi muhim poetik vosita ekani ilmiy asosda xulosalangan.

Kalit so'zlar. Talmeh, badiiy san'atlar, Erkin Vohidov, tarixiy xotira, poetik tafakkur, tahlil.

Annotation. This article analyzes the role and significance of talmeh as one of the artistic devices in the poetry of the renowned Uzbek poet Erkin Vohidov. In the course of the study, theoretical definitions of talmeh are examined on the basis of classical poetic sources, and its aesthetic and semantic functions in poetic texts are revealed. The artistic potential of talmeh is analyzed through selected lyrical works by Erkin Vohidov, such as "Samar bo'lg'ay," "O'zbekim," and "Debocha." The article concludes that talmeh serves as an important poetic device in Vohidov's oeuvre, expressing historical memory, literary continuity, and national identity.

Keywords. Talmeh, literary devices, Erkin Vohidov, historical memory, poetic thinking, literary analysis.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение талмеха одного из художественных приёмов в творчестве Erkin Vohidov. В ходе исследования теоретические определения талмеха освещаются на основе классических поэтических источников, раскрываются его эстетические и духовные функции в поэтическом тексте. На материале лирических произведений поэта «Samar bo'lg'ay», «O'zbekim», «Debocha» рассматриваются художественные возможности данного приёма. В статье научно обоснован вывод о том, что талмех в творчестве поэта выступает важным поэтическим средством выражения исторической памяти, литературной преемственности и национальной идентичности.

Ключевые слова: талмех, художественные приёмы, Эркин Вохидов, историческая память, поэтическое мышление, анализ.

Kirish. Ijodkorning estetik quroli o'laroq badiiy san'atlar she'rga o'zgacha kayfiyat beradi, uni jonlantiradi, makondan makonga, zamondan zamonga, vaqtdan vaqtga olib o'tuvchi ko'prik vazifasini bajaradi. Ming yillar davomida shakllanib, san'at nomini olgan badiiylik vositalari faqatgina she'r bezagi emas, balki shoir niyatini o'quvchiga yetkazuvchi vosita, muallifning rangin tuyg'ular olami haqida tasavvur beruvchi manba yoki shoir ko'nglini kitobxon didi va zavqi bilan bog'lovchi ma'naviy rishta hamdir. [2:3] Adabiyotshunosligimizda she'riy san'atlarni ma'naviy va lafziy san'atlarga ajratish an'ana bo'lib kelgan. Ma'naviy san'atlar asardagi g'oyalarni yorqin ifodalash, lirik va epik timsollarni hayotiyroq gavdalantirish, ularning ma'naviy qiyofalari, his-tuyg'ularini

ta'sirchanroq aks ettirishga xizmat qilgan bo'lsa, lafziy san'atlar asarning til jihatdan jozibardorligini, ohangdorligini ta'minlashga yordam bergan. Ma'naviy va lafziy san'atlardan har birining o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyat ko'lami mavjud. [3:8] Bunday badiiy san'atlar safida talmeh ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. U shoirga bir ishora bilan chuqur ma'no ifodalash imkonini beruvchi san'atdir. Talmeh – she'rda mashhur tarixiy voqea, shaxslar, badiiy asarlarga ishora qilish san'ati demak. U mumtoz poeziyada keng qo'llanilgan ma'naviy san'atlarning eng xarakterlilaridan biri bo'lib, o'zbek shoirlari ijodida ko'p uchraydi. Mumtoz poetikaga doir bir qator asarlarda berilgan bu san'atning ta'rifi asosan bir-biriga mos keladi. Masalan, “Al-mo'jam fi ma'oir-ul-ash'or-ul-Ajam”da : “Shoir ozgina so'z bilan ko'p ma'noni ifodalasa, ana shunga talmeh deyiladi. Bu san'at balog'at egalari nazarida itnobdan (gapni cho'zishdan) ko'ra maqbulroqdir”, tarzida tavsiflansa, “Maboniy-ul-insho”da: “Talmeh sabqati zikri voqea o'lmaksizin qissaya yoxud masali soir hukminda bo'lg'on bir she'ra ishorat aylamakdir”, deb izohlanadi. “Mezon ul-balog'a”, “Balog'ati usmoniya” va “Ilmi bade dar zaboni forsiy”da berilgan ta'riflar ham asosan, yuqoridagilar bilan bir xil. Chunonchi: “Talmeh shuki, so'zlovchi (yozuvchi) nazm yo nasrda o'z matlabining isboti uchun mashhur qissaga yo oyatga, yo hadisga, yo ma'lum masal va shu kabilarga ishorat qiladi. She'rda ba'zi ilmiy istilohlarni ishlatishni ham san'at doirasiga kiritganlar”. [5:128]

Adabiyotlar tahlili. Talmeh san'atining nazariy asoslari Sharq mumtoz poetik tafakkuri manbalarida keng yoritilgan. Jumladan, “Al-mo'jam fi ma'oir-ul-ash'or-ul-Ajam”, “Maboniy-ul-insho”, “Mezon ul-avzon” kabi asarlarda talmeh qisqa ishora orqali keng ma'no ifodalovchi ma'naviy san'at sifatida talqin etiladi. O'zbek adabiyotshunosligida bu masala Yoqub Is'hoqov, A. Hojiahmedov, H. Boltaboyev singari olimlar tomonidan izohlangan bo'lib, ular talmehning poetik-estetik imkoniyatlari, tarixiy va diniy manbalarga tayanishi hamda badiiy tafakkurdagi o'rnini ilmiy asoslab berganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy, tipologik va matnshunoslik metodlaridan foydalanildi. Avvalo, mumtoz poetik manbalardagi talmeh ta'riflari nazariy asos sifatida o'rganildi. So'ng Erkin Vohidovning “Samar bo'lg'ay”, “O'zbekim”, “Debocha” kabi lirik asarlari badiiy-tahliliy usulda ko'rib chiqildi. She'riy matnlarda qo'llangan talmehlar tarixiy, adabiy va madaniy kontekst asosida sharhlanib, ularning estetik hamda ma'naviy funksiyalari aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar. Atoqli shoir Erkin Vohidov ijodida ham talmeh badiiy san'ati salmoqli o'rin egallaydi. Masalan, shoir “Samar bo'lg'ay” nomli she'rda ushbu san'atdan ustalik bilan foydalanadi:

*Tirilsa nogahon Farhod,
Yuzingni ko'rsa ko'zguda,
Kechib Shirinidan yuz yil
Ko'yinda darbadar bo'lg'ay.[8:413]*

Shoirilar muhabbat mavzusidagi asarlarida ko‘pincha Sharqda keng tarqalgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Vomiq va Uzro”, “Tohir va Zuhra” kabi qissalar, dostonlarning qahramonlari nomiga ishora qiladilar. O‘quvchi u yoki bu nomga ishorani ko‘rar ekan, uning ko‘z oldida o‘sha qissa, doston, afsona mazmuni, uning qahramonlari hayoti, sevgisi, kurashi, fojiali taqdiri jonlanib, shoir demoqchi bo‘lgan g‘oyani, fikrni, tuyg‘uni yorqinroq tasavvur qiladi, chuqurroq anglab yetadi. [4:41] Yuqoridagi parchada ham Farhod talmehi Navoiy asariga qahramoniga ishora qilgan. Mashuqa shunchalar go‘zalki, hatto Farhod uning yuzini ko‘zguda ko‘rsa, Shirindan kechishga ham tayyor. “Farhod va Shirin”da Farhod Shirinni ko‘zguda ko‘rib oshiq bo‘ladi: *“Farhodning ko‘ngliga hayrat uchquni tushib, ko‘zguning yuziga qaradi... otga mingan oy yuzli go‘zallar...qimmatbaho gavharlardan taqinchoqlar taqib, ular o‘zlariga juda zeb bergan edilar. Ularga bir gul yuzli go‘zal boshliq bo‘lib, bu chavandoz go‘zalning mingan oti yurishi oldida osmon oti cho‘loq, quyosh yuzi uning manglayi porloqligi oldida o‘z rangidan hijolatda edi. U go‘zal go‘yo quyosh bilan shatranj o‘ynaganday rux yurib, ot sakratib, uni har soatda yuz marta mot qilar edi. U go‘zalning boshdan oyog‘i jahonni o‘rtab, olamga bir boshdan o‘t solguday edi...”*. [1:91] Erkin Vohidov dostonidagi ayni voqeaga ishora qiladi va mashuqaning Shirinidan-da go‘zal ekanini badiiy zavq bilan yoritadi.

Shoirning “O‘zbekim” qasidasi ham talmeh badiiy san‘atiga juda boy:

Tarixingdir ming asrlar

Ichra pinhon, o‘zbekim,

Senga tengdosh Pomiru

Oqsoch Tiyonshon, o‘zbekim.

So‘ylasin Afrosiyobu

So‘ylasin O‘rxun xati,

Ko‘xna tarix shodasida

Bitta marjon, o‘zbekim.

Al Beruniy, Al Xorazmiy,

Al Farob avlodidan,

Asli nasli balki O‘zluk,

Balki Tarxon, o‘zbekim.

Qasidadagi har bir talmeh orqali o‘zbek xalqining qadimiyligi, buyukligi e‘tirof qilingan. Pomir va Tyonshon qadimiy, ulkan tog‘lardandir. Ularga ishora orqali shoir o‘zbek xalqining necha mingyillik tarixga ega ekanini badiiy ifoda etadi. Afrosiyob Samarqandning ko‘hna shahri, O‘rxun xati esa turkiy xalqlarning o‘tmishdagi yozma yodgorligidir. Ushbu talmehlar xalqimizning ilk shahar madaniyatiga avvaldan ega bo‘lgani, o‘zining yozuvi, ilm-ma‘rifati bilan ko‘hna tarix maydonida alohida mavqe qozongani ifoda etiladi. Beruniy, Xorazmiy, Farobiyalar – jahon ilm-fani ustunlari. O‘zluk so‘zi qadimgi turkiy “Öz” (o‘z, mohiyat, asl) kalimasidan hosil bo‘lgan. Tarxon esa

qadimgi turkiy davlatlarda oliy martabali unvon sanalgan. Bu jihatdan qasida mazmuniga yondashsak, ushbu tushunchalar o'zbek xalqining nomi va mohiyati bir ildizdan ekanini, maqom-u qudrati oliy bo'lganini ifoda etadi.

Erkin Vohidov ijodida Navoiy siymosiga murojaatlar ham alohida o'ringa ega. Jumladan, "Debocha" nomli she'rida shoir g'azal yozishga bel bog'layotgani haqida yozar ekan, Maqsud Shayxzoda so'zi bilan aytganda "g'azal mulking sultoni" bo'lmish Navoiy safida bo'lishni niyat qiladi:

*Istadim sayr aylamoqni,
Men g'azal bo'stonida.
Kulmangiz, ne bor senga deb
Mir Alisher yonida.*

Darhaqiqat, Erkin Vohidov purma'no g'azallar yozib salaflariga chin ma'noda izdosh bo'la oldi. Masalan:

*O'qib "Devoni Bobur",
Ham varaqlab "Nomai Bobur",
Eshit bulbul navosiyu,
Qilichlarning jarangidan. [7:75]*

Yuqoridagi parcha Bobur ijodiga ishora mavjud. Erkin Vohidov Mirzo Bobur devondagi she'rlarni bulbul navosiga qiyos etgan. Uning mashhur "Boburnoma" memuar asarini ham yodga ollgan. Shoir "bulbul navosi" va "qilichlar jangi" obrazlarini qarama-qarshi qo'yish orqali Bobur shaxsiyatida ikki muhim jihat – nozikta'b shoirlik va jasur sarkardalikni uyg'un tarzda tasvirlaydi.

Xulosa. Talmeh san'ati Erkin Vohidov ijodida muhim badiiy-estetik vazifa bajaradi. Shoir ushbu san'at vositasida tarixiy shaxslar, mumtoz adabiy asarlar va milliy madaniy qadriyatlarga ishora qilib, she'r mazmunini boyitadi hamda o'quvchini keng tarixiy-adabiy olamga olib kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алишер Навоий. Хамса: Фарҳод ва Ширин. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975. – 91 б.
2. Болтабоев Х. Мумтоз бадий санъатлар талқини. // Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. Тошкент: Зарқалам, 2006. – 3 б.
3. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадийёт маллоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 8 б.
4. Ҳожиаҳмедов А. Шеърый санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 41 б.
5. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. Тошкент: Зарқалам, 2006. – 128 б.
6. Қуронон Д. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 308 б.
7. Воҳидов Э. Ёшлик девони. – Тошкент: Фафур Ғуллом номидаги НМБ, 1969. – 75 б.
8. Воҳидов Э. Ишқ савдоси. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 413 б.